

“BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI”

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani

20- umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Muhiddinova O'g'iloy

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish savodxonligi darslarida zamonaviy metodalar orqali kreativlikni oshirish yo'llari va kreativlikni rivojlantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ona tili, kreativlik, tez aytish, o'quvchi, nutq, ona tili va o'qish savodxonligi, rivojlantirish.

Bugungi kunda yurtimizda asosiy e'tibor o'quvchi yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga, ularni mustaqil tarzda fikrlaydigan, yuksak tafakkur egasi, vataniga kerakli inson qilib tarbiyalash hamda madaniyatli, ma'rifatli insonlardan biri bo'lib kamol topishlariga qaratilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz”

Shu jumladan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish asosiy maqsad qilib olingan. O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligini to'g'ri tashkil eta bilish lozim. Fikrini, nutqini hamda kreativligini oshirish, kelajak avlodlarga sog'lom fikrli bolani tarbiyalash ona tili va o'qish savodxonligining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, bola fikrlashining kengayishida sodda soʻzlardan murakkab soʻzlarga oʻtib borishi yosh xususiyatlariga moslab davlat taʼlim standartlari asosida joylashganligi oʻta muhimdir.

Boshlangʻich sinf “Ona tili va oʻqish savodxonligi” va “Oʻqish” darsliklarida berilgan xalq ogʻzaki ijodiga mansub materiallarni oʻqish jarayonida oʻquvchilar nafaqat oʻzbek xalqining oʻlmas maʼnaviyat buloqlaridan bahramand boʻladilar, balki oʻzlari ham sevib oʻqigan ertak- dostonlardagi qahramonlar kabi vatanparvar, mard, jasur, toʻgʻrisoʻz, mehnatsevar, kamtar va mehribon insonlar boʻlib yetishishni orzu qiladilar. Ana shunday kishilar haqida tasavvur hosil qiladilar, ezgulikni hayotdagi oʻrnini bilib oladilar. Bularning hammasi bola shaxsining shakllanishiga yordam beradi.

Ona tili va oʻqish savodxonligi va oʻqish darslarida bolalarni xalq ogʻzaki ijodi asarlari vositasida estetik tarbiyalashga ham alohida ahamyat beriladi. Oʻqitilayotgan matn va uni oʻrgatish metodlari bolaning estetik qabul qilish qobiliyatini, tabiat va jamiyatdagi haqiqiy goʻzallikni ajrata olish, kishilar hayoti va sanʼatdagi goʻzallikni his qilish kabi estetik fazilatlarni rivojlantirish uchun xizmat qilishi lozim. Bularning hammasi boshlangʻich sinf oʻquvchilarini tarbiyalashda hamda ularning maʼnaviy dunyosini boyitishda xalq ogʻzaki ijodi materiallarining alohida oʻrni borligini koʻrsatadi.

Istiqlol tufayli erishgan yutuqlarimiz haqidagi asarlar milliy gʻurur tuygʻularini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu jihatdan boshlangʻich sinflarda oʻquvchilar “Oʻqish va nutq oʻstirish” dasturi asosida tuzilgan “Ona tili va oʻqish savodxonligi” darsliklari orqali koʻplab xalq ogʻzaki ijodi asarlaridan namunalar bilan tanishadilar. Bu asarlarni oʻqiboʻrganish uchun boshlangʻich sinf oʻquv dasturida muayyan vaqt ajratib koʻrsatilgan boʻladi.

adi. 1-sinf dan tortib 4-sinf gacha “Ona tili va oʻqish savodxonligi” va “Oʻqish kitobi” darsliklarida xalq ogʻzaki ijodi alohida boʻlim sifatida koʻrsatilgan va ularni oʻrganish uchun muayyan bir soatlar belgilangan. “Xalq oʻgiti – baxt kaliti” boʻlimiga bolalar qalbiga ona allasi bilan kirib kelgan ogʻzaki ijod namunalari kiritilgan boʻlib, ezgulik, toʻgʻri soʻzlik, sofdillik, nafosat, doʻstlik, oʻrtoqlik, ahillik haqida tasavvur hosil qiladi.

qlik, ahillik haqida tasavvur hosil qiladi. Oʻquvchilarning 1-sinfda va mustaqil oʻqishlari lozim boʻlgan asarlar:

1. “Sher va sichqon” ertagi.
2. “Maymun va duradgor” ertagi.
3. “Rostgo’y bola” ertagi.
4. “Laylak keldi - yoz bo’ldi” qo’shig’i.
5. Latifalar

Ertaklar orqali o’quvchilar sarguzashtlar olamiga sayohat qilishadi. Nima yaxshiyu, nima yomonligini ertaklardagi voqea-hodisalar orqali uqib oladilar. Ertak qahramonlarining holatini so’zlab berish, voqealarni rasmda ifodalashga alohida e’tibor qaratiladi.

O’quvchilarning 2-sinfda va mustaqil o’qishlari lozim bo’lgan ertaklari:

1. Quyoshbobo nurlari.
2. Maqtanchoq ayiq.
3. Nima totli?
4. Ertaklar.
5. Mashhur rassom. (va h.k)

3-sinf darsligidagi xalq og’zaki ijodi namunalari orqali o’quvchilarga xalqning orzu-umidlari, do’stlik, ahillik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, fazilatlarini ulug’lanishi, salbiy xislatlarning qoralanishi uqtiriladi. O’quvchilar qo’shiq, ertak, topishmoq, tez aytish va maqollar bilan tanishadilar. “Inson nima uchun hammadan kuchli?”, “Botir mergan va chaqimchi”, “Tulki bilan laylak”, “Mehnatning tagi-rohat”, kabi o’zbek xalq ertaklarini o’qiydilar. Shuningdek, “Qaysar buzoqcha”, “Chumoli va tipratikan” masallarini o’rganadilar.

4-sinf “O’qish kitobi” darsligidagi “Xalq og’zaki ijodi” bo’limini o’rganish uchun esa 28 soat ajratilgan. Bunda o’quvchilar xalqimizning ming yillar mobaynida yaratgan sehrli-fantastik ertaklari, xalq dardi, istak-xohishi, orzu-umidlari ifodalangan qo’shiqlar, bolalarning quvnoq o’yin-qo’shiqlari, hozirjavoblik, topqirlikni taqozo etadigan topishmoqlar, xalqning hayotiy xulosasi tarzida yuzaga kelgan purhikmat maqollar, sehrjozibaga yo’g’rilgan rivoyatlarni o’qib-o’rganadilar. Bo’limning o’zi 5 qismdan iborat:

1- qism “Qo’shiqlar qanotida” deb ataladi. Bunda “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga”, “Xo’p hayda” qo’shiqlari berilgan.

2- qism “Ertaklar mamlakatida” deb nomlanadi. Undan “Davlat”, “Ilm afzal”, “Ko’zacha bilan tulki”, “Ochko’z boy”, “Hiylagarning jazosi”, “Ziyrak uch yigit” ertaklari o’rin olgan.

3- qism “Adabiy ertaklar bo’lib, unda Anvar Obidjonning “Bo’rining tabib bo’lgani haqida ertak”, Shukur Sa’dullaning “Laqma it”, A.Abdurazzoqning “Baqa bilan taqa” ertaklari mavjud.

4- qism “Topishmoqlar”. Bunda 5 ta topishmoq va G’afur Gulomning “Buni toping, qizlarim” she’riy topishmog’i berilgan.

5- qism “Maqollar” bo’lib, bu yerda 11 ta maqol mavjud.

Boshlang’ich sinf “Ona tili va o’qish savodxonligi” va “O’qish kitobi” darsliklaridagi xalq og’zaki ijodiga mansub asarlar mundariyasi tahlilidan ham ko’rinadiki, o’quvchilar maktabga qadam qo’ygan davridanoq xalqning o’lmas merosidan, ma’naviyat sarchashmasidan, ya’ni og’zaki ijodi namunalaridan bahramand bo’lar ekan. Bu asarlarni o’rganish jarayonida ularning tarbiyaviy jihatlariga diqqat qilish, ulardan yosh avlodning insoniy fazilatlarini shakllantirishda unumli foydalanish esa har bir o’qituvchining eng mas’uliyatli vazifasi bo’lib qolaveradi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari xalq og’zaki ijodi namunalaridan dastlab ertak bilan tanishadilar. Boshlang’ich sinf “Ona tili va o’qish savodxonligi” darsliklarining barchasiga ko’plab ertaklar kiritilgan. Jumladan, 1-sinf “Ona tili va o’qish savodxonligi” darsligida “Zumrad va Qimmat”, “To’g’rivoy va Egrivoy”, “Uch og’ayni botirlar”, “Oltin tarvuz”, “Qizil qalpoqcha” kabi ertaklar berilgan. 2-sinf Ona tili va o’qish savodxonligi darsligida “Donishmand soat”, “Zumrad va Qimmat”, “O’tinchi yigit bilan sher”, “Urto’qmoq”, “Oltin tuyoqli kiyik”, “Oqko’ngil chol va xasis boy”, “Snog’idan adashmadi”, “O’jar baliqcha”, “Quyuncha va ayyor tulki” kabi ertaklar bilan tanishadilar. 3- sinf “O’qish kitobi” darsligida 13 bo’lim bo’lib, “Xalq og’zaki ijodi” bo’limida 4 ta ertak: “Botir mergan va chaqimchi”, “Ahillik- ulug’ baxt”, “Halollik”, “Donishmand yigit” “Barakalla, bo’tam”, “Noahillik oqibati” ertaklaridir. 4-sinf “O’qish kitobi” darsligida 14 bo’lim bo’lib, “Xalq og’zaki ijodi” bo’limining “Ertaklar mamlakatida” 7

ta, “Adabiy ertaklar” qismida 3ta ertak, boshqa bo’limlarda 2 ta ertak berilgan. Jumladan, “Chaqimchiga mukofot”, “Omonatga xiyonat”, kabi ertaklar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matjonov S. , A. Shoalilov, X. G`ulomova, SH. Sariyev, Z. Dolimov, 4-sinf O`qish kitobi - Darslik. Tosh., "Yangiyo`l Poligroaph Service", 2011.
2. Mirzayev T. va boshqalar "O`zbek xalq og`zaki xrestomatiya" T.Mirzayev va boshqalar "Aloqachi" 2008y.
3. Mavlonova K. [va boshq.]. Ona tili va o`qish savodxonligi. 1-qism Darslik 2-sinf uchun. – Toshkent: "Respublika ta`lim markazi", 2021.
4. Qosimova K. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi. - Toshkent: "O`qituvchi", 1985. –B. 216.
5. Ro`ziyeva M.Y. Bolalar folklori. O`quv qo`llanma. –B.: "Durdona", 2022. –241b.